




Navoiy viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2020- yil yanvar-may)

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
sanoat ishlab chiqarish hajmi,
mlrd.so'm, o'zgarish sur'ati, % da



- B - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash
- C - Ishlab chiqaradigan sanoat
- D - Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
- E - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilish

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020- yilning yanvar-may oylarida viloyatimiz korxonalaridan 22 894,7 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019- yilning yanvar-may oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 102,4 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 82,5 % ni tashkil etdi.



Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish


Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishda - 50,0 % elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning - 24,3 % ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida - 3,8 % ga va ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning - 2,5 % ga o'sishi xizmat qildi.

*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalaridan 2020- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2 398,9 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining 10,5 % ini tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoat

2020- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 18 885,0 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 82,5 % ini tashkil etdi.


Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da





Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi
bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, %

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,3 % ni (2019- yil yanvar-may oylarida - 0,3 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 5,9 % (7,0 %), o'rta-quyi texnologiyali - 86,7 % (84,0 %) va quyi texnologiyalisi - 7,1 % (8,7 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi - 4,7 % (2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 102,8 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 79,8 % (2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 106,7 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 3,6 % (2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 78,5 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 3,2 % (2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 90,0 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 6,9 % (2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 96,9 %) ni tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda, yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-may	2020- yil yanvar-may	2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan o'sish, % da
Portlandsement, ming tonna.	1395,0	1417,0	101,6
So'ndirilmagan va so'ndirilgan ohak, tonna.	19573,0	26285,1	134,3
Ammoniy nitrat, ming tonna azod	105,2	80,2	76,3
Natriy gidroksidi (kaustik soda), ming tonna.	7,9	23,6	299,1
Kislorod, ming m ³ .	60,6	58,3	96,2
Temir beton, tonna.	21479,2	15048,0	70,1
Birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni og'irligi 600 g (buxanka) tonna.	235,2	236,2	100,4
Ishlov berilgan suyuq sut tonna.	485,3	413,9	85,3

Texnologik jihozlarni kapital qayta tiklash ishlari, kimyo korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish hajmini oshirish imkonini berib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan, portlandsement (2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan 101,6 %), hamda kaustik soda (3,0 m) mahsulotlarida o'sish ko'rsatkichlari qayd etildi.

Shuningdek, ammoniy nitrat (2019- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 76,3 %) mahsuloti ishlab chiqarish sanoatida pasayishi kuzatildi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1 559,2 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 6,8 % ini) tashkil etadi.

2020- yilning yanvar-may oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 24,3 % ga oshganligi kuzatildi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalaridan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-may	2020- yil yanvar-may	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt/s	4 021,5	5 053,5	1 032,0
Issiqlik energiyasi, ming gkal	1 877,9	1 760,7	-117,2



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 51,6 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,2 % ini) tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da



● Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish




Yirik sanoat korxonalaridan suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasidagi bajarilgan ishlar

	2019- yil yanvar-may	2020- yil yanvar-may	Farqi +/-
Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	6 442,2	7 042,5	600,3
Xavfli (zaharli) sanoat chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	10,6	9,3	-1,3
Boshqa guruhlariga kiritilmagan, qayta foydalanishga yaroqli yig'ilgan boshqa xavfsiz chiqindilar, tonna.	10 500,0	9 314,1	-1 185,9



Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1 334,8 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019- yilning mos davriga nisbatan 2,2 % ga o'sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 5,8 % ni tashkil etdi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino-arog mahsulotlari va pivo 0,02 % (2019- yil yanvar-may oylarida 0,02 %) ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Navoiy shahriga to'g'ri kelib, 31,2 % ni, shuningdek, Karmana tumani 17,8 % ni, Xatirchi tumani 14,0 % ni, Qiziltepa tumani 12,0 % ni hamda Navbahor tumani 6,5 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (102,2 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Navoiy shahar (113,4 %) hamda Konimex tumanida (105,6 %) qayd etildi.



Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
(2020- yilning yanvar-may oylarida)

	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan, % da
Navoiy viloyati	1 334,8	100,0	102,2
Navoiy sh.	416,3	31,2	113,4
Zarafshon sh.	82,0	6,1	97,4
<i>tumanlar</i>			
Karmana	238,0	17,8	100,8
Konimex	32,7	2,5	105,6
Qiziltepa	160,3	12,0	96,8
Navbahor	86,7	6,5	94,4
Nurota	80,2	6,0	100,2
Tomdi	12,3	0,9	96,4
Uchquduq	40,0	3,0	95,9
Xatirchi	186,3	14,0	95,1

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishi-ning viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Navoiy shahriga to'g'ri kelib, 25,4 %, shuningdek, Xatirchi tumani 18,2 % ni, Qiziltepa tumani 17,7 % ni, Karmana tumani 12,6 % ni hamda Navbahor tumani 8,8 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Navoiy shahriga (105,1 %) qayd etildi.



Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
(2020- yilning yanvar-may oylarida)

	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan, % da
Navoiy viloyati	554,4	100,0	102,7
Navoiy sh.	140,5	25,4	105,1
Zarafshon sh.	45,6	8,2	104,6
<i>tumanlar</i>			
Karmana	69,9	12,6	104,8
Konimex	16,9	3,0	99,3
Qiziltepa	98,0	17,7	104,7
Navbahor	48,6	8,8	99,3
Nurota	4,4	0,8	92,5
Tomdi	6,8	1,2	99,5
Uchquduq	22,7	4,1	99,0
Xatirchi	101,0	18,2	99,4


Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Navoiy shahriga to'g'ri kelib, 35,3 %, shuningdek, Karmana tumani 21,5 % ni, Xatirchi tumani 10,9 % ni, Nurota tumani 9,7 % ni hamda Qiziltepa tumani 8,0 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (101,8 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Navoiy shahrida (118,2 %) qayd etildi.



Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
(2020- yilning yanvar-may oylarida)

	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan, % da
Navoiy viloyati	780,4	100,0	101,8
Navoiy sh.	275,8	35,3	118,2
Zarafshon sh.	36,4	4,7	89,7
<i>tumanlar</i>			
Karmana	168,1	21,5	99,2
Konimex	15,9	2,0	113,2
Qiziltepa	62,3	8,0	86,5
Navbahor	38,1	4,9	88,8
Nurota	75,8	9,7	100,7
Tomdi	5,5	0,7	92,7
Uchquduq	17,2	2,2	92,0
Xatirchi	85,3	10,9	90,4



Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 510,1 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 2,2 % ni tashkil etdi.




Navoiy viloyati shahar va tumanlar kesimida
sanoat ishlab chiqarish hajmlari

	2020- yil yanvar-may mlrd. so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Navoiy viloyati	22 894,7	102,4
Navoiy sh.	19 268,8	106,1
Zarafshon sh.	89,7	87,2
<i>tumanlar</i>		
Karmana	2 427,8	120,5
Konimex	141,7	91,9
Qiziltepa	430,3	92,8
Navbahor	197,8	139,3
Nurota	92,3	94,7
Tomdi	12,9	98,9
Uchquduq	43,2	92,9
Xatirchi	190,2	97,9



2020- yil yanvar-may holatiga shahar va tumanlarning viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi, % da




Viloyatimiz sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulushi Navoiy shahri (viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmning 84,2 %), Karmana (10,6 %), Qiziltepa (1,9 %), Navbahor (0,8 %), hamda Xatirchi (0,8 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Tomdi (0,1 %) hamda Uchquduq (0,2 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Shahar va tumanlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga qaratilgan choratadbirlar, Navbahor (2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan 139,3 %), Karmana (120,5 %), tumanlarida hamda Navoiy (106,1 %) shahrida sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada oshishiga imkon berdi.


Hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksi
(2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan, % da)





Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi
(2020- yil yanvar-may oylarida, % da)

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1 441,2 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 6,3 % ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Xatirchi tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Uchquduq (100,0 %), Tomdi (100,0 %), Nurota (99,6 %), Navbahor (62,4 %), Qiziltepa (38,4 %) tumanlarida kuzatildi.

Viloyatimiz shahar va tumanlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, Navoiy shahrida (1,5 %), Karmana (16,7 %), Konimex (24,6 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.




Viloyatimizda faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalar soni, birlikda
(2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatimizda 2 959 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 679 tasi (mavjud korxonalar umumiy sonining 22,9%) Navoiy shahriga, 485 tasi (16,4 %) Karmana tumaniga, 363 tasi (12,3 %) Xatirchi tumaniga to'g'ri kelmoqda.



Viloyatimizda yangi tashkil etilgan sanoat korxonalar soni, birlikda
(2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra)





2020-yil yanvar-may oyida viloyatimizda 413 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, jumladan 99 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari sonidagi ulushi 24,0 %) Xatirchi tumanida, 56 tasi (13,6 %) Qiziltepa tumanida, 54 tasi (13,1 %) Karmana tumanida, 53 tasi (12,8 %) Navoiy shahrida, 51 tasi (12,3 %) Uchquduq tumanida hamda 36 tasi (8,7 %) Zarafshon shahrida tashkil etildi.

**Navoiy viloyati statistika
boshqarmasining
sanoat statistikasi bo'limi**
Tel.: (79) 223-33-29